



## 2020- yilning yanvar-oktabr oylari uchun Jizzax viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Jizzax viloyatida jami **2 412,9** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **104,0 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.


**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.11.2019- yil	01.11.2020- yil	
	<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1785</b>	<b>2010</b>	<b>112,6</b>
	<b>Jizzax sh.</b>	<b>784</b>	<b>865</b>	<b>110,3</b>
	<b>tumanlar:</b>			
	<b>Arnasoy</b>	<b>54</b>	<b>57</b>	<b>105,6</b>
	<b>Baxmal</b>	<b>59</b>	<b>72</b>	<b>122,0</b>
	<b>G'allaorol</b>	<b>102</b>	<b>123</b>	<b>120,6</b>
	<b>Sh.Rashidov</b>	<b>315</b>	<b>348</b>	<b>110,5</b>
	<b>Do'stlik</b>	<b>46</b>	<b>61</b>	<b>132,6</b>
	<b>Zomin</b>	<b>115</b>	<b>122</b>	<b>106,1</b>
	<b>Zarbdor</b>	<b>77</b>	<b>98</b>	<b>127,3</b>
	<b>Zafarabod</b>	<b>20</b>	<b>25</b>	<b>125,0</b>
	<b>Mirzacho'l</b>	<b>40</b>	<b>49</b>	<b>122,5</b>
	<b>Paxtakor</b>	<b>70</b>	<b>78</b>	<b>111,4</b>
	<b>Forish</b>	<b>58</b>	<b>64</b>	<b>110,3</b>
	<b>Yangiobod</b>	<b>45</b>	<b>48</b>	<b>106,7</b>


**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.11.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Jizzax sh.(43,0 %), Sh.Rashidov (17,4 %) va G'allaorol (6,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **91,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **2,2** martaga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **2,0** % punktga ko'payib, **3,8** % ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Jizzax shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **46,8 %** i yoki 2019- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **133,1 %**), Zafarobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **43,9 %**), va Mirzacho'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **9,2 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **98,3 %**) ga to'g'ri keldi.



**Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajarigan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **75,4 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **3,4 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **100,9 %** ni tashkil etgan holda **1 819,3 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **20,9 %** ni tashkil etdi yoki **502,6 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **105,9 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **50,5** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 362,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,1 %** va **97,9 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar- oktabr**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **80,3 %** i yoki **1 938,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**80,3 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **73,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **80,3 %** ni tashkil etdi

**80,3 %**

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 819,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **75,4 %** ni tashkil etdi.

**75,4 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **502,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **20,8 %** ni tashkil etdi.

**20,8 %**






**2020- yilning yanvar-oktabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 412,9</b>	<b>104,0</b>	<b>1 868,4</b>
Jizzax sh.	759,0	108,2	591,0
tumanlar:			
Arnasoy	34,6	101,8	24,4
Baxmal	80,9	101,9	62,2
G'allaorol	114,6	100,9	101,9
Sh.Rashidov	643,1	101,4	506,9
Do'stlik	65,1	102,3	45,2
Zomin	137,6	106,2	104,0
Zarbdor	103,0	100,7	80,1
Zafarabod	127,5	103,7	94,6
Mirzacho'l	43,6	101,1	29,2
Paxtakor	130,8	100,7	107,3
Forish	107,9	105,2	75,8
Yangiobod	65,2	103,7	45,8



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **4,1 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **16,1 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **19,4 %** punktga ko'payib, **70,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,4 %** punktga kamayib, **25,2 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



**Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **3,5 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **33,4 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **96,1 %** (**33,1 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida hammasi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **19,6 %** punktga ko'paydi.

ulushi,% da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'ycha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-oktabr oylarida**

*mlrd. so'm*

	Qurilish ishlari hajmi	Shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 339,9</b>	<b>1 927,5</b>	<b>234,6</b>	<b>177,8</b>
Jizzax sh.	755,8	523,5	111,2	121,1
tumanlar:				
Arnasoy	31,6	31,6		
Baxmal	81,1	72,8	8,3	
G'allaorol	129,6	121,8	7,8	
Sh.Rashidov	615,9	541,1	44,7	30,1
Do'stlik	56,4	56,4		
Zomin	130,0	93,5	23,5	13,0
Zarbdor	99,7	99,7		
Zafarobod	114,6	114,6		
Mirzacho'l	38,0	13,1	11,3	13,6
Paxtakor	133,8	111,7	22,1	
Forish	96,5	90,8	5,7	
Yangiobod	56,9	56,9		


\*Hududlar bo'ycha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



7

## Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar  
qurilishining ulushi, % da



Bino va inshootlar qurilishi,  
jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Sh.Rashidov tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 28,1 % i yoki **541,1** mlrd. so'm), shuningdek, Jizzah shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 27,2 % i yoki **523,5** mlrd. so'm), G'allaorol tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 6,3 % i yoki **121,8** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.



**Jizzax viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (72) 221-53-73**